

## AKSIAL SPONDILOARTRITNING PROGRESSIV KECHISHIDA ZARDOBDAGI ANNEXIN A1 DARAJASINING KLINIK AHAMIYATI

D.N.Ikramova

A.A.Eshmurzaeva

M.Sh.Karimov

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18031730>

### **Dolzarbligi.**

Aksial spondiloartrit (AksSpA) umurtqa pog'onasi va sakroiliak bo'g'imlarning surunkali yallig'lanishi bilan kechib, asosan mehnatga layoqatli yosh aholi orasida uchraydi va erta nogironlikka olib kelishi bilan ahamiyatlidir. Kasallikning dastlabki, norrentgenologik bosqichlarida strukturaviy o'zgarishlarning aniq ko'rinmasligi erta tashxis qo'yishni qiyinlashtiradi. Shu bois kasallikni erta aniqlash va kechishini prognozlash imkonini beruvchi biomarkerlarni izlash dolzarb muammo hisoblanadi. Annexin A1 (ANXA1) yallig'lanishga qarshi va immunoregulyator xususiyatlarga ega bo'lib, uning AksSpAdagi klinik ahamiyati yetarlicha o'rganilmagan.

### **Tadqiqot maqsadi.**

Aksial spondiloartritga chalingan bemorlarda kasallikning progressiv kechishi va umurtqa pog'onasidagi strukturaviy o'zgarishlar bilan bog'liq holda zardobdagi annexin A1 darajasining klinik ahamiyatini baholash.

### **Tadqiqot**

Tadqiqotga AksSpAning turli klinik va rentgenologik bosqichlarida bo'lgan 62 nafar bemor (o'rtacha yosh  $43,2 \pm 5,3$  yil, kasallik davomiyligi  $2,4 \pm 1,4$  yil) jalb etildi. Nazorat guruhini 10 nafar amaliy sog'lom shaxs tashkil etdi. Kasallik faolligi va funksional holat VAS, DAREA, ASDAS va BASFI indeksleri yordamida baholandi. Umurtqa pog'onasidagi strukturaviy o'zgarishlar RASSS va BASRI indeksleri asosida aniqlanildi. Qon zardobida annexin A1 miqdori immunoferment tahlil (ELISA) usuli bilan o'lchandi. Olingan natijalarga statistik ishlov berildi.

### **Tadqiqot natijalari.**

AksSpA bilan kasallangan bemorlarda zardobdagi ANXA1 darajasi nazorat guruhiga nisbatan ishonchli darajada past bo'ldi ( $p < 0,05$ ). Kasallik davomiyligi va rentgenologik bosqichlar oshib borgan sari ANXA1 miqdorining bosqichma-bosqich kamayishi kuzatildi. ANXA1 darajasining pasayishi kasallik faolligi (ASDAS, VAS) hamda umurtqa pog'onasidagi strukturaviy shikastlanishlar (RASSS, BASRI) bilan teskari bog'liqlikni namoyon etdi. Muhimi, ANXA1 darajasidagi o'zgarishlar AksSpAning norrentgenologik bosqichidayoq aniqlanib, yashirin strukturaviy buzilishlar mavjudligini ko'rsatdi.

### **Xulosa.**

Zardobdagi annexin A1 Aksial spondiloartritning erta va progressiv bosqichlarida umurtqa pog'onasidagi strukturaviy o'zgarishlarni aks ettiruvchi muhim biomarker hisoblanadi. ANXA1 darajasini baholash kasallikni erta aniqlash, uning kechishini prognozlash va individual davolash taktikasini tanlashda amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** Aksial spondiloartrit, annexin A1, biomarker, umurtqa pog'onasi, strukturaviy o'zgarishlar.

**Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Braun J., Sieper J. Axial spondyloarthritis. *Lancet*. 2007;369(9570):1379–1390.
2. Sieper J., Poddubnyy D. Axial spondyloarthritis. *Lancet*. 2017;390(10089):73–84.
3. van der Heijde D. et al. Assessment of radiographic progression in ankylosing spondylitis. *Arthritis Rheum*. 2004;50(8):2622–2632.
4. Perretti M., D'Acquisto F. Annexin A1 and glucocorticoids as effectors of the resolution of inflammation. *Nat Rev Immunol*. 2009;9(1):62–70.
5. Yang Y.H., Morand E.F. Annexin A1 and glucocorticoid receptors in inflammatory diseases. *Trends Immunol*. 2010;31(9):337–343.
6. Poddubnyy D., Rudwaleit M. Early diagnosis of axial spondyloarthritis. *Ann Rheum Dis*. 2013;72(7):1061–1067.